



O‘ZLASHTIRISH ESTETIKASI VA GERMENEVTIK YONDASHUV (Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi misolida)

Muallif: Sevinch Tojiyeva ¹

Affiliyatsiya: Navoiy davlat universiteti magistranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20232678>

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi adabiy jarayonda o‘zlashtirish estetikasi hamda germenevtik yondashuv masalalari haqida so‘z boradi va adabiy germenevtika hikoya janri misolida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi asosida badiiy matnning ko‘pqatlamli ma‘nosi, milliy va jahon adabiy tajribasining ijodiy o‘zlashtirilishi hamda o‘quvchi talqinining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zlashtirish estetikasi, adabiy germenevtika, germenevtik yondashuv, zamonaviy nasr, o‘quvchi interpretatsiyasi, ramziy talqin, falsafiy tafakkur, ekzistensial ruh, badiiy matn.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnni talqin etish masalasi tobora murakkablashib, yangi nazariy-metodologik yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, hozirgi adabiy jarayonni o‘rganish va tahlil etish badiiy tafakkur taraqqiyotini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o‘zlashtirish estetikasi va germenevtik yondashuv asosiy nazariy tayanch sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalo, bu ikki adabiy terminning mazmun-mohiyatini anglash, tushunish lozimdir. Har qanday san‘at insonga zavq bera oladi. U musiqami, raqsmi, qandaydir peyzaj tasviri yoki miniatyurami, his-tuyg‘uga boy bo‘lgan go‘zal bir she‘r yoki sahna asarimi ahamiyatsiz. Faqatgina oddiy inson ushbu san‘at turlaridan bu san‘atni anglagan holda huzur olayotgan xos kishilarga nisbatan kamroq zavqlanadilar. Adabiyot ham xuddi shunday. Badiiy matnning ich-ichiga kirib boradigan, uni anglaydigan, tushunadigan badiiyat kishilari adabiyotdan anchayin ko‘proq lazzat olishadi. Chunki, ular ma‘no tagidagi ma‘noni ko‘ra olishadi. “Usta-usta-da! Qachon, qayerda yashaganidan, badiiy ijodning qaysi turi, janri xususida fikr yuritayotganidan qat‘i nazar o‘zakni, asosni ko‘rsatadi, qo‘yadi.” [1:11]. Ushbu jarayon esa adabiyot ilmida o‘zlashtirish estetikasi deb nomlanadi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy idrok nafosati deyish mumkin. Ammo bu oddiy insonlar adabiyotdan zavq-u shavq ola olmaydi degani emas. “Kitobxon – badiiy matn unga xoh yoqsin, xoh yoqmagan bo‘lsa-da, his-hayajonga beriladi, u haqda o‘ylay boshlaydi. Kitobxon ijodining bu bosqichida badiiy matn yo badiiy asar sifatida qabul qilinadi, yo badiiylikka aloqasiz matoh sifatida inkor etiladi. O‘qish, uqish jarayonidagi ijodda aql-xush yetakchilik qiladi. Aniqrog‘i kitobxon bus-butun holda qabul qiluvchi, o‘zlashtiruvchiga aylanadi.” [1:13]. Badiiy matnni o‘zlashtirish estetikasi har bir kitobxon yoki adabiyotshunos uchun farqlidir. Har kim dunyoqarashi, fikrlashi, ma‘naviy ko‘zgusi nuqtayi nazaridan turli shaklda idrok etishi mumkin. O‘zlashtirish estetikasi va germenevtik yondashuv

o'zaro bog'liq tushunchalardir. "Badiiy adabiyot namunalarida aks etgan milliy, individual ohang yoki ruhni aniqlash turli tadqiqot usullari orqali amalga oshadi. Bu borada hermenevtika fani har bir ijodkor yoki asarning o'ziga xos ovozi, ohangini aniqlash va tushunishga xizmat qiladi." [2:3].

"Germenevtika (yunoncha hermeneutikos – tavsiflovchi, bayon qiluvchi) termini "tarjima san'ati", "tavsiflash san'ati" (Germes yunon mifologiyasida xudolarning xohish-istagini odamlarga tavsiflab beruvchi, o'zaro fikr yetkazuvchi hisoblangan) ma'nolarini anglatadi" [3:107]. "Adabiy hermenevtika va mumtoz badiiy til" nomli o'quv qo'llanmasida bir qator olimlar guruhi hermenevtikani quyidagicha tavsiflaydi: "Germenevtika ruhiy-psixologik, hissiy-emotsional o'zlashtirilgan dunyoning turli manzaralarini izohlaydi, individual o'ziga xoslik kategoriyalarini tavsiflaydi". [2:12]. Qisqa qilib aytganda, badiiy matnning o'zlashtirish estetikasi, ya'ni tushunish, idrok etish orqali uni turli usullarda talqin etish va har xil ma'nolarni keltirib chiqarish jarayoni hermenevtika deyiladi. Adabiyot ixlosmandlari ham, kitobxonlar ham, adabiyotshunos olimlar ham har qanday badiiy matnning o'zlashtirish olishadi, ya'ni ular badiiy matnning to'raligicha anglagan va tushungan paytlarida ushbu matn xususiylashadi va egallanadi. Masalan, bir asarni o'qib tugatgan adabiyot ixlosmandi asardan ta'sirlanib she'r yozishi mumkin. Kitobxon esa asardan olgan taassurot va tushunchalarini bema'lol bir taqiriz shaklida qog'ozga tushira oladi. Adabiyotshunos olimlar bo'lsa, ushbu asarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga kirishadi va qarabsizki, bir ilmiy maqola tayyor. Adabiyot bilan aloqador bu uch insonning asarni o'zlashtirishi ham yoki undan turli ma'nolarni chiqarishi ham farqlidir. Demak, hermenevtika — matnning chuqur talqin qilish, uning yashirin ma'nolari, ramzlari, muallif dunyoqarashi va o'quvchi idroki o'rtasidagi aloqani o'rganishga qaratilgan ilmiy metoddir. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o'zbek nasrida modernistik va falsafiy tafakkur kuchayib, badiiy matnning talqin qilishda an'anaviy realizm mezonlari yetarli bo'lmay qoldi. Bu jarayonda hermenevtik yondashuv va o'zlashtirish estetikasi adabiy tahlilning muhim metodologik asosiga aylandi. Ushbu jarayonni Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" [7] hikoyasi misolida hermenevtik yondashgan holda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Nazar Eshonqul hikoyalari mazmunning yashirin qatlamlari, ramziy ifoda va subyektiv idrok ustuvorligi bilan ajralib turadi. Adibning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi insoniyatning ma'naviy tanazzuli, jamiyatdagi qadriyatlar inqirozi va shaxsning ichki bo'linishini badiiy ifodalovchi asarlardan biridir. Hermenevtik tahlil matnning faqat voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki ko'p qatlamli ma'no tizimi sifatida o'rganishni talab qiladi. Ushbu metodni quyidagi tamoyillar asosida o'rganish va tadqiq etish uni tushunishni osonlashtiradi:

- badiiy matn va vaqt birligi – asar davr ruhiyati va muallif dunyoqarashi bilan birgalikda o'rganiladi;
- ramziy talqin – obrazlar tashqi ko'rinishidagi ma'noni emas, balki tashqi ko'rinish ifodalab bergan ramziy-falsafiy ma'noni ham anglatadi;
- o'quvchi interpretatsiyasi (izohlash, talqin qilish) – asar ma'nosi o'quvchining o'zlashtirish estetikasi, ya'ni badiiy idroki orqali ochiladi;
- "hermenevtik doira" tamoyili — butunni tushunish uchun qismlarni, qismlarni anglash uchun butunni tahlil qilish zarur.

Hikoyada maymun yetaklab yurgan g'alati odam obrazi markazda turadi. U jamiyat orasida g'ayrioddiy ko'rinadi, ammo asta-sekin o'quvchi uning ramziy mohiyatini anglay boshlaydi. Voqealar ko'proq tashqi harakatlardan ko'ra ichki

ma'naviy muhitni ochishga xizmat qiladi. Kompozitsion jihatdan hikoya g'alati odamning paydo bo'lishi, jamiyatning unga munosabati, maymun va odam o'rtasidagi munosabatlar, ramziy yakun va falsafiy xulosa bosqichlarida rivojlanadi. Ushbu kompozitsiya germenevtik jihatdan insonning o'z mohiyatidan uzoqlashish jarayonini aks ettiradi. Ushbu asar tahlili borasida Anora Norbekovaning shunday fikrlari bor: "Yigit bu yerda o'zi yashayotgan jamiyat a'zolarini yetaklab ketayotganga o'xshaydi. Yigitning maymunni yetaklab o'rmondan chiqishi jamiyatni ham maymun kabi yetaklay olishini, cholning maymunning ortidan ko'zlariga g'am cho'kkan, hayotga bo'lgan intilishidan nishona qolmagan holda ergashishi esa jamiyatga, mavjud haqiqatga tobe ekanligining ramzidir." [4].

Maymun hikoyaning eng muhim ramzidir. Germenevtik talqinda u insonning ibtidoiy instinktlarini, jamiyatdagi ongli emas, taqlidga asoslangan xulqni, ma'naviy jihatdan qoloqlik holati kabi ma'nolarni anglatadi. Maymunni odam yetaklayotgandek tuyuladi, ammo aslida odamning o'zi ichki jihatdan maymun tomonidan "yetaklanayotgani" ramziy tarzda ko'rsatiladi. Bu insonning aql va ma'naviyatdan ko'ra instinktga bo'ysunib borishini anglatadi. Shu o'rinda, instinkt atamasiga ham to'xtalish joizdir. "Instinkt (lotincha instinctus – qo'zg'atish; ilhom) – tilak, mayl, tirik organizmning tashqi va ichki muhit ta'sirlariga nisbatan ongsiz ravishda, ammo tug'ma, maqsadli harakatlari yig'indisi; reflekslar." [8]. Hikoyadagi odam obrazi ham ongsiz ravishda maymunga ergashadi. Ushbu obraz zamonaviy jamiyatdagi shaxsning umumlashma obrazidir. U tashqi tomondan boshqaruvchiga o'xshaydi, ammo ichki jihatdan zaif. Germenevtik tahlil shuni ko'rsatadiki, bu obraz orqali muallif insonning ma'naviy bo'linishini tasvirlaydi.

Hikoyadagi boshqa insonlar voqeaga tomoshabin sifatida qaraydi. Bu jamiyatning befarqligi va loqaydligini bildiradi. Germenevtik nuqtayi nazardan, ular o'zini anglamagan ommaning timsolidir. Asarda shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat markaziy masalalardan biridir. Odamning g'ayrioddiylik jamiyatda tushunmovchilik uyg'otadi. Biroq germenevtik tahlil shuni ko'rsatadiki, g'ayrioddiy shaxs emas, balki ma'naviy tanazzulga uchragan jamiyatning o'zi muammo markazida turadi. Jamiyatning kulishi va befarqligi esa ma'naviy qadriyatlarining yo'qolganini anglatadi.

Muallif bu orqali zamonaviy insonning o'z mohiyatidan uzoqlashib borayotganini ko'rsatadi. Hikoya tashqi voqealardan ko'ra ichki ruhiy jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Hikoyaning germenevtik tahlili jarayonida shaxsning o'zini anglay olmasligi, ichki bo'linish va ruhiy iztirob, insoniylik va hayvoniylik o'rtasidagi kurashi kabi psixologik qatlamlar aniqlanadi. Falsafiy jihatdan asar ekzistensial ruhda yozilgan bo'lib, insonning yolg'izligi va ma'no izlash jarayonini aks ettiradi. Nazar Eshonqul modernistik uslubga xos bo'lgan ramziy obrazlar, ochiq yakun, ko'p qatlamli ma'no tizimi, psixologik tasvir kabi badiiy vositalardan foydalanadi. Germenevtik tahlil shuni ko'rsatadiki, asarning estetik kuchi aynan uning ko'p ma'noliligidadir.

Har bir o'quvchi hikoyani o'z tajribasi asosida turlicha talqin qiladi. Qozoqboy Yo'ldoshev fikri bilan aytganda, "Muallifning nimani nazarda tutgani emas, bitganida nimalar tasvirlangani muhim sanaladi." [5]. Ana shu bitilganlar orqali o'quvchi o'ziga kerak bo'lgan mohiyatni izlab topadi va tushunadi, hikoyadagi tasvirlarni tahlil qilishga, asosiy ma'no va mohiyatni chiqarishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi zamonaviy o'zbek nasrining falsafiy va ramziy yo'nalishdagi muhim namunalaridan biridir. Maymun va odam obrazlari orqali muallif insonning ichki tanazzuli, jamiyatning befarqligi va

ma'naviy qadriyatlarining yemirilishini tasvirlaydi. Nazar Eshonqul o'zining ramziy mazmun-mohiyatga ega bo'lgan modernistik hikoyalari orqali jamiyatdagi turli voqealarni, kamchiliklarni ko'rsatishga urinadi. Fikrimizning isboti shaklida Rahmat Bobojonning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Nazar Eshonqul va Isajon Sulton rivoyatlar, asotirlar, ilm-fandagi yangiliklar, dunyoning turli burchaklarida sodir bo'lgan turli davrlardagi tarixiy hodisalar vositasida inson qalbi, qismatini badiiy talqin qilib hikoyalar yozishyapti. Ular, aytish mumkinki, an'anaviy roman uchun arziyasiz detal bo'ladigan oddiy unsur-obrazni dunyoni anglash vositasiga, universal ma'noga ega bo'lgan ramzga aylantira olishadi." [Hamdamov U. 6:199].

Hikoya o'quvchini o'z mohiyati haqida o'ylashga, insoniylik va instinkt o'rtasidagi ziddiyatni anglashga undaydi. Germenevtik yondashuv esa asarning yashirin ma'nolarini ochishda samarali metod sifatida namoyon bo'ladi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi aynan ramziy va ko'p ma'noli badiiy tuzilishga ega bo'lgani uchun germenevtik tahlilga juda mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: "Фан", 2006. – 232 б.
2. Тожибоев М., Юсупова Ш., Бўриева Э. Адабий герменевтика ва мумтоз бадий тил. – Т.: "Университет", 2013. – 160 б.
3. Ивина А.А. Философия: Энциклопедический словарь под ред. – М.: «Гардарика», 2004. С.216.
4. Norbekova A. Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. // <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/56616>
5. Yo'ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar. // <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/qozoqboy-yo-ldosh-modernizm-ildiz-mohiyat-va-belgilar>
6. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. O'quv qo'llanma – Т.: "Akademnashr", 2020. – 288 b.
7. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nazar-eshonqul/nazar-eshonqul-maymun-yetaklagan-odam-hikoya/>
8. <https://oyina.uz/uz/teahause/1180>